

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'ZBEK TILINI
O'QITISHDAGI O'RNI**

Komilova Z.X

Farg'ona davlat universiteti

xumor851@mail.ru

Shohmurodova Shohista Bahodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining o'zbek tilini o'qitishdagi o'rni, ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. O'zbek tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun axborot vositalarining qo'llanilishi, ularning afzalliklari va duch kelinadigan muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, axborot texnologiyalar, sun'iy intellekt, onlayn ta'lim, STEAM ta'limi Virtual reallik


Hozirgi kunda o'zbek tili - O'zbekistonning rasmiy davlat tili bo'lishi bilan birga, xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilini o'rganishga bo'lgan talab ortib, o'zga tilli o'quvchilarning o'zbek tilini o'rganish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash zaruratini kuchaytirmoqda. O'zbek tilini bugungi kundagi o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda o'zbek tili davlatlar o'rtasidagi xalqaro aloqalarda, diplomatiya, biznes, savdo aloqalarida muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston tarixiga nazar tashlasak, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashganligi va boy tarixiy merosi mamlakatni ko'plab chet elliklar uchun jozibador qiladi. Shu bois o'zbek tiliga bo'lgan qiziqish ham tobora ortib bormoqda. Globallashtirish davrida nafaqat madaniyatlararo muloqot doirasida balki, ba'zi so'zlarning tilda o'zgartirib bo'lmazligi ham o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning ta'siri sezilarli o'rin egallaydi. Rus, arab va ingliz tillaridan kirgan yangi atamalar o'zbek tilining lug'at boyligini oshirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, bu jarayon tilni saqlab qolish va milliy qadriyatlarni asrashni talab qiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda shuni ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilining o'rni ham sezilarli darajada oshgan. Bugungi kunda YouTube, TikTok, Instagram va boshqa platformalarida o'zbek tilidagi kontent ko'plab foydalanuvchilar tomonidan kuzatilmoqda, bu esa tilning xalqaro ommalashuviga xizmat qiladi va shuningdek, bunday platformalarda til tanlash tizimi bo'lib unda o'zbek tilini borligini ko'rib kishi hursand bo'ladi. O'zbek tilining xalqaro adabiyot va ilm-fan tillari bilan bog'liqligi ham muhim o'rin egallaydi. Jahon ilmiy va texnologik yutuqlarini o'zbek tilida aks ettirish, tarjimalar qilish va zamonaviy terminlarni ishlab chiqish bu borada muhim qadamdir. Eng muhim narsa bu o'sha tilni o'rganuvchilar soni oshishi va o'sha tilga bo'lgan odamlarning qiziqishidir. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 dan oshiq

universitet va 100 dan ortiq maktablarda o'rganilmoqda ekan. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. Bu ko'rsatkichlar butun dunyoda o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlarni belgilab beradi. Ona tilimiz — milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir.

Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz turli ma'lumotlarni asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlardan oladi, zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarni til o'rganishga jalb qilish, ta'minotlar va o'quy jarayonini samarali tashkil etish oson va qulay. Axborot texnologiyalari - bu internet, mobil ilovalar, virtual o'qitish platformalari, o'quv dasturlari va boshqa interaktiv mahsulotlarni o'z majmua ichiga oluvchi zamonaviy texnologiyalardir. Bu texnologiyalar til o'rganishda yangi usullarni aniqlaydi. O'quvchilarga turli xil materiallarni taqdim etish orqali ular dars jarayonida faol ishtirok etadilar va o'zlari uchun qulay usullar bilan tilni o'rganadilar. Madaniyatlararo muloqot, asosan, tillar orqali amalga oshadi, chunki til – bu nafaqat fikr almashish vositasi, balki milliy madaniyat va merosning asosi hamdir.

O'zbek tilini rivojlantirish uchun yangi dasturlar va loyihalar ishlab chiqildi. O'zbek tilining lug'at boyligi va grammatik imkoniyatlari uni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb tilga aylantirish imkonini beradi. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish uchun, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklarini hamda elektron lug'atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'zbek tilini keng targ'ib etish bizning burchimizdir. Mamlakatimizda yashayotgan turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishlari uchun tegishli sharoit yaratib berish, yurtimizda va xorijda o'zbek tilini o'rgatadigan o'quv markazlarini ko'paytirish zarur. Shuni takidlash joizki, bugungi kunda tarjimonlik va tarjima nazaryasi kabi yo'nalishlarga bo'lgan talab ko'paymoqda. Buning sababi yoshlarni til o'rganishga bo'lgan qiziqishi va o'zbek tilini dunyoga tanitish desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarjimonlik san'ati o'zbek tilining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tarjima sohasi orqali o'zbek tilining lug'at boyligi kengayib, zamonaviy ilm-fan, texnologiya, adabiyot va san'atga oid atamalar shakllanmoqda. Bundan tashqari, jahon adabiyoti va ilmiy-texnikaviy bilimlar o'zbek tiliga tarjima qilinishi natijasida til yanada rivojlanmoqda. Tarjimachilik faoliyati orqali o'zbek kitobxonlari dunyoning eng mashhur asarlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. Nafaqat boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish balki o'zbek tilidagi asarlarni ham boshqa tillarga tarjima qilinishi jahonda teng targ'ib etilmoqda.

Axborot texnologiyalarining ta'limda qo'llanishi o'quy jarayonini samaraliroq qiladi va o'quvchilarga qo'shimcha yordam beradi. Bu borada, o'zga tilli o'quvchilar axborot platformalari, interaktiv dasturlar va mobil ilovalar orqali tezkor javob olish, materialni ko'proq va takroran o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa til o'rganishni oson va samarali qiladi, audio va video materiallar orqali ham til o'rganish mumkin. Masalan, YouTube'dagi video darslar, mobil ilovalar, interaktiv o'quv dasturlari o'quvchilarni til o'rganishga amaliy yordam beradi. Bu orqali intonatsiya urg'u va to'g'ri talaffuzni amaliy o'rganish mumkin.



1. Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish
2. Hozirgi o'zbek tili_F.Bobojonov,K.Rajabov,D.Yusufova
3. saidjonovna, v. t. (2024). linguistic aspects of cyber commumunication in english and uzbek languages. Kokand university research base, 308-315
4. Ta'lim muhitining transformatsiyasi:zamonaviy o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.Toshkent 2025-yil 16-aprel,22-23-betlar.
5. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 4(3), 87–95.
6. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(1), 56–63.
7. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. Education and science in the XXI century. 2 (38).
8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. Scientific and practical journal "Technique". Issue No.1.
9. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.
10. Komilova Z.Kh,Nazirjonova. F.S The role of new information technolyies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.
11. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 234-237.
12. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.

